

**O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talaba-yoshlari
o‘rtasida “Korrupsiyasiz-hayot”
mavzusidagi rasmlar tanlovi
Nizomi**

1. Mazkur tanlov O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talaba yoshlari o‘rtasida o‘tkaziladi.

2. Mazkur nizom talaba yoshlar o‘rtasida “Korrupsiyasiz-hayot” mavzusidagi rasmlar tanlovini tashkil etish tartibini belgilaydi.

I. Umumiy qoidalar:

3. Tanlovda universitet talaba-yoshlar va magistrantlar ishtirok etadi.

4. Tanlovnii tashkil etish, o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tuziladi.

5. Tanlovda ishtirok etish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi, ishtirokchilar soni chegaralanmagan.

II. Tanlovnii o‘tkazishning maqsadi va vazifalari

6. “Korrupsiyasiz-hayot” mavzusidagi rasmlar tanlovi universitet talaba yoshlarini korrupsiyasiz hayotga tayyorlash, yurtimizda korrrupsiyaga qarshi kurash jarayonlarida faol ishtirok etishlarini ta’minlash maqsadida hamda talaba yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun o‘tkaziladi.

7. Tanlov vazifalari quyidagilardan iborat:

Yoshlarni kelajakda korrupsiyasiz hayotga tayyorlash, yurtimizda kelajak yosh avlod orasida korrupsiyani oldini olishni ta’minlash;

Yoshlarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste’todli yoshlarni har tomonlama rivojlantirish;

Yosh avlodni yuksak ma’naviyatli, intellektual salohiyatli, ota-onasiga va Vatanga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash.

III. Tanlovda ishtirok etish va o‘tkazish:

8. “Korrupsiyasiz-hayot” mavzusidagi rasmlar tanlov universitetdagi barcha talaba yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladi.

9. “Korrupsiyasiz-hayot” mavzusidagi rasmlar tanlovi 2023-yil 6-dekabr kuni o‘tkaziladi.

10. Tanlov ishtirokchilari 2023-yil 5-dekabr soat 71:00 ga qadar arizalarni Yoshlar bilan ishslash ma’naviyat va ma’rifat bo‘limiga taqdim etishlari kerak.

11. Tanlov 2023-yil 6-dekabr kuni soat 14:00 da madaniyat saroyida bo‘lib o‘tadi.

12. Tanlov ishtirokchilari 2023-yil 6-dekabr kuni soat 13:30 da madaniyat saroyiga o‘zlarining ish qurollari (40-50 sm razmerdagi vatmen qog‘oz va rangli qalam) bilan kelishlari shart.

IV. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

13. “Korrupsiyaziz-hayot” mavzusidagi rasmlar tanlovida ishtirokchilar 40-50 sm razmerdagi vatmen qog‘oziga mavzu doirasida razm chizishadi.

14. “Korrupsiyaziz-hayot” mavzusidagi rasmlar tanlovida chizilgan rasmlarning mazmuni, sifati, motivatsion salohiyatga ega ekanligi, mavzuga taluqliligi, qog‘ozning sifati, rasmlarning mavzu doirasida chizilgani, belgilangan vaqt mobaynida chizilganligi;

15. “Korrupsiyaziz-hayot” mavzusidagi rasmlar tanlovida chilgan rasmlarning orqa taravida muallif(lar)ning hamda fakultetning nomi va guruh raqami to‘liq bo‘lishi kerak.

16. “Korrupsiyaziz-hayot” mavzusidagi rasmlar tanlovida chizilgan materiallari tuzilgan tashkiliy qo‘mita tomonidan baholanadi.

V. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash

17. “Korrupsiyaziz-hayot” mavzusidagi rasmlar tanlovida, g‘oliblari tashkiliy qo‘mita tomonidan tanlov tugaganidan so‘ng 3 kun muddatda saralanadi.

18. Tanlov g‘oliblari talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasi tomonidan taqdirlanadi;

- Birinchi o‘rin- 1 500 000 (bir million besh yuzming) so‘m
- Ikkinci o‘rin- 1 000 000 (bir million) so‘m
- Uchinchi o‘rin- 500 000 (besh yuz ming) so‘m beriladi.

VI. Yakuniy qoidalar

19. Tanlovni o‘tkazish bilan bog‘liq barcha xarajatlar universitet va homiylik mablag‘lari hisobidan belgilangan tartibda qoplanadi.